



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN  
HAL QILUV QARORI**

**Chiroqchi tumani 2022-yil 18-aprel 4-1807-2201/354-sonli ish**

Chiroqchi tuman iqtisodiy sudining sudyasi A.Qodirov, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining da'vogar "██████████" MChJ XK manfaatida, javobgar "██████████" fermer xo'jaligi hisobidan 850.383 so'm asosiy qarz undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha ishni soddalashtirilgan tartibda, Chiroqchi tuman iqtisodiy sudi binosida ko'rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (bundan buyon matnda – palata deb yuritiladi) da'vogar "██████████" MChJ XK (bundan buyon matnda - da'vogar deb yuritiladi) manfaatida sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar ██████████ fermer xo'jaligi (bundan buyon matnda – javobgar deb yuritiladi) hisobidan 850.383 so'm asosiy qarz undirishni so'ragan.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, da'vogar va javobgar o'rtasida 2020-yil 6-yanvarda "Paxta xom ashyosi va urug'lik paxta xarid qilish bo'yicha" shartnoma tuzilgan bo'lib, ushbu shartnomaning 4.3 bandiga ko'ra, "xaridor" bajariladigan agrotexnik tadbirlar uchun muddatidan kelib chiqqan holda, dalada monitoring ishlari amalga oshirilgandan so'ng "xo'jalik"ning ehtiyojiga ko'ra, tasdiqlangan agrotexkarta asosida (agar urug' hamda yig'im terim mavsumi uchun kerakli materiallar bo'nuk hisobiga olinsa, ularni qiymatini hisobga olgan holda) mahsulot qiymatining 60 foizi miqdorigacha bo'nak (avans) mablag'lari bilan ta'minlash majburiyatini olgan.

Da'vogar tomonidan shartnoma shartlari to'liq bajarilib, javobgarga bo'nak (avans) tariqasida 850.383 so'mlik neft, yoqilg'i-moylash mahsulotlari yetkazib berilgan. Biroq, javobgar tomonidan shartnoma shartlari to'liq bajarilmasdan bo'nak (avans) tariqasida berilgan neft, yoqilg'i-moylash mahsulotlari haqini to'lamasdan da'vogardan qarzdor bo'lib qolgan.

Da'vogarning qarzdorlikni to'lab berish to'g'risidagi talabnomasi javobgar tomonidan oqibatsiz qoldirilgan.

Natijada ushbu nizo kelib chiqib, palata da'vogarning manfaatida sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Da'vo talabi asoslidir:

Chunki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda – FK deb yuritiladi) 8, 234-moddalariga ko'ra majburiyatlar

shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

Mazkur holatda taraflar o'rtasidagi ushbu nizo shartnomaviy majburiyatni bajarmaganlik oqibatida kelib chiqqan.

Vaholanki, FKning 236-moddasida majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi, 237-moddasiga ko'ra majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi.

FKning 465-modda ko'ra kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga - tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to'lash (to'lab turish) majburiyatini oladi.

Mazkur 850.383 so'm asosiy qarzdorlik qabul qilib olingan hisob-faktura bilan ham o'z tasdig'ini topgan.

"Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga ko'ra iqtisodiy sudlarga beriladigan mulkiy xususiyatga ega da'vo arizalaridan da'vo bahosining 2 foizi miqdorida, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda davlat boji to'lanadi.

IPKning 118-moddasi sud xarajatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda ularning zimmasiga yuklatiladi.

Bayon etilganlarga ko'ra sud, da'vo talabini to'liq qanoatlantirib, javobgar hisobidan da'vogar foydasiga 850.383 so'm asosiy qarz, oldindan to'langan 21.600 so'm pochta xarajati, Respublika budjetiga 270.000 so'm davlat boji undirishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 236, 237, 465-moddalarini hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 118, 176-179, 180, 203<sup>2</sup>, 203<sup>4</sup>, 203<sup>5</sup>-moddalariga asosan, sud

### **q a r o r   q i l d i :**

Da'vo talabi to'liq qanoatlantirilsin.

Javobgar "██████████" fermer xo'jaligi hisobidan:

Da'vogar "██████████" MChJ XK foydasiga 850.383 so'm asosiy qarz, oldindan to'langan 21.600 so'm pochta xarajati;

Respublika budjetiga 270.000 so'm davlat boji undirilsin.

Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach ijro varaqasi berilsin.

Mazkur hal qiluv qarori ustidan o'n kunlik muddat ichida apellatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) mumkin.

**Sudya**

**A.Qodirov**